

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik




2023-yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni bo'yicha dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **37,9** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **4,9** mingtaga yoki **11,5 %** ga kamayib - Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023-yilning yanvar-mart oylarida **2,1** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **36,9 %** ga kam demakdir.

2023-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi, birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni jami **37 862** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 064** tani tashkil etdi.


2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida **10 541** tani yoki jamiga nisbatan **27,8 %** ni tashkil etdi.

1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2023-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **9,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan **1,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,3** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **13,3** birlik, Samarqand tumanida **11,2** birlik, Oqdaryo tumanida **9,9** birlik, Jomboy tumanida **8,9** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Samarqand sh.	18,3
Kattaqo'rg'on sh.	13,3
Samarqand	11,2
Oqdaryo	9,9
Jomboy	8,9
Nurobod	7,9
Bulung'ur	7,9
Toyloq	7,9
Pastdarg'om	7,8
Ishtixon	7,4
Payariq	7,2
Kattaqo'rg'on	7,0
Paxtachi	6,8
Qo'shrabot	6,2
Narpay	5,7
Urgut	5,6

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, (yanvar-mart oylarida, birlikda)

2022-y.

2023-y.

825	Samarqand sh.	469
90	Kattaqo'rg'on sh.	67
173	Oqdaryo	144
154	Bulung'ur	116
149	Jomboy	75
212	Ishtixon	102
167	Kattaqo'rg'on	86
85	Qo'shrabot	61
97	Narpay	64
147	Payariq	113
301	Pastdarg'om	179
106	Paxtachi	44
251	Samarqand	182
125	Nurobod	106
239	Urgut	149
152	Toyloq	107

2023-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

Samarqand sh.	22,7
Samarqand	8,8
Pastdarg'om	8,7
Urgut	7,2
Oqdaryo	7,0
Bulung'ur	5,6
Payariq	5,5
Toyloq	5,2
Nurobod	5,1
Ishtixon	4,9
Kattaqo'rg'on	4,3
Jomboy	3,6
Kattaqo'rg'on sh.	3,2
Narpay	3,1
Qo'shrabot	3,0
Paxtachi	2,1


2023-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahrida **22,7 %**, Samarqand tumani **8,8 %**, Pastdarg'om tumani **8,7 %**, Urgut tumani **7,2 %**, Oqdaryo tumani **7,0 %**, Bulung'ur tuman **5,6 %**, Payariq **5,5 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yil yanvar-mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **864** ta, sanoatda **350** ta hamda Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **223** ta yangitdan tashkil etilgan.


Viloyatning tuman va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida **469** ta, Pastdarg'om tumanida **179** ta hamda Samarqand tumanida **182** ta yangitdan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillar yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023-yillar 1 choragida jami 12 982 ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - 5 534 (yoki 13,1 %) ta, xizmatlar sohasida - 2 808 ta (yoki 6,6 %), sanoat sohasida - 2 556 ta (yoki 6,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 1 365 ta (yoki 3,2 %) va qurilish sohasida - 719 ta (yoki 1,7 %)ni tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, foizda




2023-yil yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **66,7 %** ni tashkil qilib, 2022-yilning shu davriga nisbatan **0,6** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

yanvar-mart hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, %




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	837,4
Urgut	320,8
Samarqand	307,4
Jomboy	303,3
Kattaqo'rg'on	191,7
Pastdarg'om	139,2
Bulung'ur	136,3
Kattaqo'rg'on sh.	107,5
Toyloq	105,5
Oqdaryo	100,6
Payariq	100,1
Ishtixon	63,7
Paxtachi	56,1
Narpay	41,0
Nurobod	24,8
Qo'shrabot	22,4

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 857,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (**837,4** mlrd. so'm), Urgut (**320,8** mlrd. so'm), Samarqand (**307,4** mlrd. so'm), Jomboy (**303,3** mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (**191,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qo'shrabot tumanida (**22,4** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda




2023-yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **42,4 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Qo'shrabot tumani (**100,0 %**), Bulung'ur tumani (**99,5 %**), Kattaqo'rg'on sh. (**99,6 %**), Oqdaryo tumani (**86,3 %**), Kattaqo'rg'on tumani (**80,1 %**), Urgut tumani (**77,6 %**), Samarqand tumani (**65,7 %**), Payariq tumani (**60,6 %**), Pastdarg'om (**60,0 %**) va Nurobod (**39,7 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm) va ulushi



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, foizda




2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 403,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **109,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**483,2** mlrd. so'm), Oqdaryo (**128,5** mlrd. so'm), Payariq (**112,8** mlrd. so'm), Urgut (**89,6** mlrd. so'm), Samarqand (**81,7** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**75,3** mlrd. so'm) hamda Ishtixon (**74,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmida o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y

■ hajmi — foizi


Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

2023 -yil yanvar -mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi ko'rsatkichlari.

2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **2 916,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **57,8 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning shu davriga nisbatan **142,7 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**939,7** mlrd. so'm), Samarqand (**556,7** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**325,0** mlrd. so'm), Nurobod (**187,3** mlrd. so'm), Urgut (**183,9** mlrd. so'm), Qo'shrabot (**157,1** mlrd. so'm) hamda Toyloq (**91,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda



2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.


2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **4 749,1** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **92,9 %** ini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **113,5 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Urgut (**646,4** mlrd. so‘m), Ishtixon (**449,7** mlrd. so‘m), Toyloq (**403,9** mlrd. so‘m), Pastdarg‘om (**401,2** mlrd. so‘m), Payariq (**349,4** mlrd. so‘m), Kattaqo‘rg‘on (**344,7** mlrd. so‘m) hamda Samarqand (**334,0** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda




2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 595,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **82,3 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,9 %** ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	1 242,2
Toyloq	573,6
Kattaqo'rg'on sh.	359,1
Samarqand	272,9
Kattaqo'rg'on	258,1
Bulung'ur	242,9
Pastdarg'om	232,1
Narpay	209,1
Jomboy	206,6
Payariq	204,2
Ishtixon	186,6
Urgut	154,6
Oqdaryo	145,2
Paxtachi	138,4
Nurobod	93,1
Qo'shrabot	76,2


Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, foizda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (**1 242,2** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahar (**359,0** mlrd. so'm), Toyloq (**573,6** mlrd. so'm), Samarqand (**272,9** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**258,1** mlrd. so'm), Bulung'ur (**242,9** mlrd. so'm) va Pastdarg'om (**232,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 150,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **68,0** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **106,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**1 363,4** mlrd. so'm), Samarqand (**362,3** mlrd. so'm), Urgut (**306,4** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**291,3** mlrd. so'm), Jomboy (**216,8** mlrd. so'm), Toyloq (**197,4** mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (**194,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh.dol.




Ulushi, %




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSh.dol.



Ulushi, %




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti




2023-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **66,0** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **49,0 %** ini tashkil etdi.

2023-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahrida **100,0 %**, Qo'shrabot, Payariq, Bulung'ur, Oqdaryo, Nurobod hamda Kattaqo'rg'on tumanlarida **100,0 %**, Urgut tumanida **85,4 %**, Toyloq tumanida **80,2 %**, Pastdarg'om tumanida **62,3 %**, Ishtixon tumanida **54,2 %**, Samarqand tumanida **41,1 %** va Jomboy tumanida **40,9 %**, eng past ko'rsatkich Samarqand shahrida **19,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **227,5** million AQSh dollarini yoki jami importning **49,6** % ini tashkil etdi.

2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi hajmi, million AQSh dollarda

2023-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori hajm Samarqand shahri-(**78,0** mln AQSh dollar), Kattaqo'rg'on- (**47,5** mln AQSh dollar), Urgut- (**28,0** mln AQSh dollar), Samarqand- (**19,3** mln AQSh dollar), Jomboy- (**19,0** mln AQSh dollar), Pstdarg'om- (**8,6** mln AQSh dollar) tumanlarida tashkil etdi.


Samarqand sh.	78,0
Kattaqo'rg'on	47,5
Urgut	28,0
Samarqand	19,3
Jomboy	19,0
Pstdarg'om	8,6
Nurobod	6,1
Oqdaryo	4,7
Toyloq	4,5
Kattaqo'rg'on sh.	2,5
Payariq	2,4
Bulung'ur	1,7
Qo'shrabot	1,6
Ishtixon	1,5
Narpay	1,4
Paxtachi	0,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,5 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,0%** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,4%** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,9 %** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023-yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 794** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **771 (43,0 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **891 (49,7 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **132 (7,4%)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **44,8 % (803 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,4 % (510 ta)**, sanoatda – **15,8 % (283 ta)**, qurilishda – **6,2 % (112 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,8 % (86 ta)**ni tashkil etdi.

2023-yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (569 ta), Samarqand (166 ta), Urgut (134 ta), Pastdarg'om (121 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda **48,2 %** ni, xizmatlar sohasida **45,1 %** ni, savdoda **44,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **57,0 %** ni, sanoatda **55,8 %** ni, savdoda **50,8 %** ni, xizmatlar sohasida **45,3 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda **11,6 %** ni, xizmatlar sohasida **9,6 %** ni, qishloq, sanoatda **8,8 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



2023-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda **73,2 %** ni, savdoda **56,3 %** ni, xizmatlar sohasida **55,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda **43,5 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **43,0 %** ni, xizmatlar sohasida **40,4 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda **5,4 %** ni, sanoatda **3,9 %** ni, xizmatlar sohasida **4,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	46,0	43,0	11,0
Band bo'lganlar soni	28,1	64,7	7,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	37,0	57,5	5,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	27,9	66,0	6,1
Raqobat muhiti	41,2	55,3	3,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	52,2	43,3	4,5
Band bo'lganlar soni	32,8	63,2	4,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,1	57,9	4,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	32,3	63,2	4,5
Raqobat muhiti	43,4	54,0	2,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, foizda



2023-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, foizda



* Faqat raqobat muhitiga tegishli